

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## DAVLATSHOH SAMARQANDIY VA MINTAQА ADABIYOTI MANBASHUNOSLIGI MASALALARI

**Boqijon To‘xliyev**

*TDSHU professori,*

*filologiya fanlari doktori*

*E-mail: [bokijontukhliev@inbox.ru](mailto:bokijontukhliev@inbox.ru)*

**Ilyos Ismoilov**

*ToshDO ‘TAU dotsenti,*

*filologiya fanlari doktori*

*E-mail: [ismoilov\\_iles@mail.ru](mailto:ismoilov_iles@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda olimning butun mintaqа ko‘lamida arab, forstojik hamda turkiy adabiyotga oid ko‘plab nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan mulohazalarining mazmuni va mohiyati, ularning ilmiy-nazriy hamda manbashunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Mualliflar asarning yangi tarjimasi to‘g‘risida ham o‘z mulohazalarini bildirishgan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, “Tazkirat ush-shuaro”, hasbi hol, manba, tarix, tarjima, janrlar, mahorat.

**Аннотация:** В статье с точки зрения источниковедения анализируется труд Давлатиаха Самарканди «Тазкират ушишуваро». В нем содержание и доклад ученого, имеющего большой теоретический и практический опыт работы в арабской, персидско-таджикской и турецкой литературе мирового масштаба, а также важность исследования с точки зрения научно-теоретической и источниковедческой точки зрения. будут показаны исследования. Авторы также высказали свое мнение о новом переводе произведения.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Давлатиах Самарканди, “Тазкират ушишуваро”, пример, источник, история, перевод, жанры, мастерство.

**Annotation:** The article analyzes Davlatshah Samarkandi's work “Tazkirat ush-shuaro” from the point of view of source studies. In it, the content and report of the scientist, who has a lot of theoretical and practical experience in Arabic, Persian-Tajik and Turkish literature on a global scale, and the importance of research from the point of view of scientific-theoretical and source studies will be shown. The authors also expressed their opinions about the new translation of the work.

**Key words:** Alisher Navoi, Davlatshah Samarkandi, “Tazkirat ush-shuaro”, example, source, history, translation, genres, skills.

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si tarixiy va adabiy manbashunoslikning nodir obidasi hisoblanadi. Bu unchalik yangi gap emas. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan shug‘ullangan jiddiy olimlarning barchasi ko‘plab tarixiy va adabiy yodgoriklar qatorida ushbu manbaga ham qayta-qayta murojaat etishgan.

Keyingi paytlarda Alisher Navoiyning hayot yo‘lini ancha sinchkovlik va jiddiyat bilan o‘rganayotgan akademik Sh.Sirojiddinovning kuzatishlarida asarga qayta

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

murojaat etish ko‘zga tashlanadi [9.217-229]. Olim Davlatshohning Navoiy haqidagi qaydlarini izchil o‘rganadi. Uning olingan parchalar uchun o‘zbek tilidagi tarjimalariini ham berib borgani mazkur tadqiqotdan bevosita foydalanuvchilar doirasini ancha kengaytiradi.

Shunga qaramay, haligacha ushbu asarning to‘liq tarjima etilmagani tarixiy fakt sifatida turibdi. Vaholangki, asarda temuriylar davri, temuriy hukmdorlar va ijodkorlar, shu davrdagi tarixiy sharoit, madaniy va adabiy hayot haqidagi boy ma’lumotlar aks etgan.

Alovida ta’kidlash joizki, Davlatshoh o‘sha davrdagi adabiy janrlar tizimi haqida ham juda qiziqarli va boy materiallarni jamlagan. Ularni jiddiy o‘rganish o‘sha davr adabiy jarayonini nisbatan to‘laroq tasavvur etishga imkon berishidan tashqari, ko‘plab janrlarning poetik o‘ziga xosliklari, takomili va tadriji haqida ham muhim ma’lumotlar bera oladi.

Bu tazkiraning boshqa tazkiralarga o‘xshaydigan jihatlari ham ko‘p. Shunga qaramay u o‘zining qomusiy tabiatini bilan boshqa tazkiralardan keskin farq qiladi. Buning ustiga Davlatshohning tarixchigina emas, ayni paytning o‘zida yirik olim, hassos nosir va nuktabin shoir ekani ham e’tiborga molik. Ayni mana shu fazilatlar unga o‘z davrining ijtimoiy-tarixiy hamda adabiy-madaniy jarayonlarini o‘tkir ko‘z bilan ko‘rishga, ular haqida teran mushohada qilishga hamda favqulodda nodir xulosalar chiqarishiga imkon bergen.

Alisher Navoiy o‘z tazkirasida bu olim haqida shunday yozadi: “Amir Davlatshohkim, Xuroson mulkining asil mirzodalari orasida fazl va donish zevari bila bahramand, faqr va qanoat toji bila sarbalanddur, ham Sultoni Sohibqiron otig‘a “Tazkirat ush-shuar” otlig‘ kitob bitibdur, voqe'an base zahmat tortibdur va bu toifani yaxshi jam’ qilibdur” [Alisher Navoiy, 8]. Ushbu ko‘chirmadan Davlatshohning adabiy siyemosiga oid ayrim ma’lumotlarni ilg‘ash mukin:

1. U Xuroson ijodkorlari sirasiga kiradi.
2. Adibning kelib chiqishi “asil mirzodalar”ga borib bog‘lanadi.
3. U ijodkor sifatida ham, oddiy inson sifatida ham ko‘plab fazilatlar, jumladan, faqr va qanoat egasidir.
4. “Tazkirat ush-shuar”ni Husayn Boyqaro sha’niga atab yozilgan.

“Majolis un-kafois”ning “Xurosonning va ba’zi yerning mirzodalari va soyir ozodalari zikridakim, tab’ salomati va zihi istiqomati alarg‘a boisi nazm bo‘lur, ammo mudovamat qilmaslar”, – deb atalgan beshinchchi bobo ham bevosita Davlatshoh nomi bilan boshlanadi:

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“A m i r D a v l a t s h o h — Firuzshohbekning amakizodasi Amir Alouddavla Isfaroyiniyning o‘g‘lidur. Firuzshohbekning muknat (qudrat) va azamati (ulug‘vorligi) xud olam ahli qoshida gunashdin ravshanroqdur, ta’rifqa ehtiyoj ermas. Amir Alouddavla dag‘i ahl (ishbilarmon) kishi erdi. Ammo dimog‘i xiffat (yengillik) paydo qilib, zoye’ bo‘ldi. Va lekin Amir Davlatshoh hushtab’ va darveshvash va ko‘p salohiyatlig‘ yigitdur. Obo va ajdodi tariyqidinkim, amorot (amirlik) va zohir azamat va tajammuli bo‘lg‘ay, kechib go‘shaye ixtiyor qilib, faqr va dahqanat (dehqonchilik) bila qanoat qildi va fazoyil va kamolot iktisobi bila umr o‘tkardi. Ushbu mazmundakim, bu muxtasar bitiladur, “Majma ush-shuaro” tasnif qilibdurkim, har kishi ani mutolaa qilsa, musannifining iste’dod va kamolin ma’lum qilur. Ammo bu yaqinda xabar keldikim, foniylar olamdin rihlat qilibdur. Voqe’ bo‘lsa tengri ani rahmat qilg‘ay.

Bu matla’ aningdurkim:

*Zihi az oftobi orazat chashmi jahon ravshan,*

*Zi chashmi ravshani karda dilamro xonumon ravshan. [2.143-bet]*

Bu yerda Alisher Navoiyga xos bo‘lgan nuktadonlikning yana bir yorqin namunasi namoyon bo‘lgan. Mana shu ixchamgina lavhada Davlatshoh shaxsiyatiga daxil qiladigan juda ko‘p narsalar (Davlatshohning ajdodlari, uning ijtimoiy kelib chiqishi. Ajdodlar dovrug‘i, Davlatshoh tabiatidagi asosiy fazilatlar, iste’dod darajasi va nihoyat vafoti bilan bog‘liq ma’lumotlar) qamrab olingan.

Davlatshohning asarida yetti yuzga yaqin kishi nomining uchrashi ko‘p narsalarni anglatib turadi. Ularning orasida turli kasb-hunar, amal va lavozim egalari bor. Tabiiyki, ularning asosiy qismi ijodkorlardir.

Tarixiy sharoit, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayot lavhalarining almashinib kelishi kitob mundarijasini kengaytirib, mazmunini nihoyatda boyitgan.

Davlatshoh asarining mashhur va manzur bo‘lishining bir qator sabablari bor:

1. U nufuzli oilada tug‘ilgan va zamonasining eng oliy darajadagi bilimlarni egallagan. Zero, uning to‘liq nomi Davlatshoh ibni Alouddavla Baxtishoh al-G‘oziy as-Samarqandiydir. Uning otasi Alouddavla Baxtishoh Shohruh davlatidagi ko‘zga ko‘ringan yirik davlat arboblaridan biri – amir edi. Mana shunday baland martabali shaxs oilasidagi farzandning ijtimoiy-ma’naviy hayot haqidagi axborot manbalariga bevosit daxli ham, imtivozi ham bo‘lganini e’tirof etish kerak.

2. Davlatshoh yirik olim edi. Uning olimlik salohiyati ayniqsa uch soha: tarix, tasavvuf va adabiyot (bunda badiiy adabiyot ham, adabiyotshunoslik ham nazarda tutiladi) sohasida yaxshi namoyon bo‘lgan. Asarda tarixiy fakt va hodisalarining tanlanishidan boshlab tavsifigacha, ularning tarixda tutgan o‘rnini yoritishdan bevosita

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALAR”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

shaxsiy baholarigacha bo‘lgan oraliqdagi ifodalar olimning xolis vaadolatli yondashuv egasi ekanini ko‘rsatib turadi.

3. O‘z davridagi diniy va tasavvufiy aqidalar mohiyatining ham nazariy, ham amaliy jihatdarin puxta o‘rgangan olim sifatida sohaga daxldor hodisalar mohiyatini ko‘rsatish, talqin va tadqiq etishgacha bo‘lgan jarayondagi kuzatishlar boshqalarda uchramaydigan tarzda ifoda etilgan.

4. Davlatshohning o‘zi ham yaxshigina ijodkor edi. Uning bevosita badiiy adabiyot bilan jiddiy shug‘ullanishi (masalan, tazkiradagi she’rlari) uni shoir va adib sifatida, shuningdek, adabiyot nazariyotchisi sifatida ham yuqori malakali mutaxassis bo‘lganini tasdiqlab turadi.

5. U har bir ijodkorga individual yondashadi. Boshqalarning nazariga tushmagan, boshqalar e’tibor bermagan nuqtalar Davlatshoh qalamida o‘zgacha jilo va va fayz kasb etadi. Fikrimizni bir sarlavha misolida dalillashga harakat qilamiz.

Muallif yakuniy qismda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Nizomuddin shayx Ahmad Suhayliy, Xoja Afzaliddin Mahmud, Xoja Shahobuddin Abdulloh Marvorid, Xoja Osafiy, Amir Husayn Jaloyirlar haqida alohida-alohida maqolalar beradi. Ularning sarlavhalari ham e’tiborga molik. Jumladan, Alisher Navoiy haqidagi faslga shunday nom qo‘ylgan: “**Zikri Malik ul-umaro, muin ul-fuzalo, amiri kabir Nizomuddin Alisher**” [4. 454]. Aslida “amiri kabir” katta, ulug‘ amir degan ma’noni anglatib turibdi. Shunga qaramasdan, Alisherning nomi oldidan “malik ul-umaro” sifatining keltirilishi mutafakkir adibga bo‘lgan hurmat va ehtiromning darajasini ko‘rsatish uchun yana bir qo‘shimcha dalil vazifasini ado etgan.

Asar dunyoning ko‘plab tillariga qisman yoki to‘laroq tarzda o‘girilgan. Uning O‘zbekistondagi ilk tarjimasi 1900 yilda Xivada Muhammad Rafe’ tomonidan eski o‘zbek tilida amalga oshirilgan [5. 7]. Shuningdek, yirik olim Bo‘riboy Ahedov asarning ayrim qismlarini tanlab-tanlab tarjima qilgan va 1981 yilda alohida kitob sifatida nashr etgan edi [5]. U hozirgacha ham tarixchilar, adabiyotchilar, manbashunos va matnshunoslar uchun zarur kitoblardan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Mana shu holatlarning o‘ziyoq asarni to‘liq holda o‘zbekchalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mana shu kabi zaruratlardan kelib chiqib, hozirda tazkirani o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilish ishlari davom etmoqda.

Biz tarjima jarayonida asarning Xujand nashriga tayandik [Davlatshoh]. Shunga qaramay, ish jarayoni tazkira nashrining boshqa nusxalariga ham murojaat etishni taqozo qilmoqda.

Ta’kidlash kerakki, tarjimaning faqat bir asos manbaga tayanib qolishi maqsadga muvofiq emas. Tarjima jarayonining murakkabliklaridan biri ham bir paytda bir necha

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

variant yoki nashrlar bilash ishslash zaruratidan kelib chiqadi. Aslida, tarjima jarayonining o‘zi yoxud mazmunning qayta ifodasidagi qiyinchiliklar yondosh manbalarga murojaat etishni taqozo qiladi. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”sining Xo‘jand nashri tarjima qilinar ekan, bu asarning boshqa nashrlari, jumladan, Tehron nashrini ham ishga jalb etishga zarurat seziladi. Chunki Xo‘jand nashridagi ma’noning anglanishidagi muammoli o‘rinlarni to‘g‘ri tarjima qilish istagi shu majburiyatni yuklaydi. Yuqoridagi fikrlarni quyidagi misol aniq dalillay oladi.

Davlatshoh Samarqandiy beshinchi tabaqa shoirlaridan Bisotiy Samarqandiy ijodiga to‘xtalar ekan uning bir g‘azalini keltiradi. Besh baytli ushbu g‘azalning uchinchi bayti Xo‘jand nashrida shunday berilgan:

*Tashnalab dar Karbaloi hayr memirad ачаб,  
Man, ki bar vaqhi hasan az dida meboram Furot [4. 330].*

Ushbu g‘azal kontekstiga e’tibor qaratilsa, u oshiqona mavzuda bo‘lib, tafsilotlar lirik qahramon – “men” tilidan birinchi shaxsda ifoda etiladi. Mazkur baytning ikkinchi misrasida lirik qahramon buni “men” deb tasdiqlab ham turibdi. Lekin bayt diqqat bilan o‘qilsa, ma’noga putur yetgani, bu hol ilk misradagi “memirad” fe’li tarkibidagi “-ad” uchinchi shaxs shaxs-son qo‘srimchasi tufayli sodir bo‘layotgani oydinlashadi. Vaholanki, lirik hikoya birinchi shaxs tilidan aytib kelinayotgan bir pallada kesim ifodasi uchun uchinchi shaxs birlikda ifodalangan fe’lning qo’llanishi mazmunni xiralashtirgan, natijada baytdan quyidagicha ma’no anglashilib qolgan:

*“Ajabo, men go ‘zal yuz uchun ko ‘zdan Furotni to ‘ksam ham,  
Hijron Karbalosida tashnalab holda o ‘ladi”.*

Biroq ushbu bayt Tehron nashrida biroz boshqacha berilgan:

*Tashnalab dar Karbaloi hayr memiram ачаб,  
Man, ki bar vaqhi hasan az dida meboram Furot [3. 353].*

E’tiborlisi, Tehron nashrida birinchi misradagi “memirad” fe’li “memiram” tarzida berilgan. Ayni o‘zgarish baytda yaxlit va tugal ma’no yuzaga chiqishiga imkon bergen:

*“Ajabo, men go ‘zal yuz uchun ko ‘zdan Furotni to ‘ksam ham,  
Hijron Karbalosida tashnalab holda o ‘laman”.*

Tarjimon tarjima jarayonida mana shunday go‘zal baytlarning poetik kashfiyot darajasidagi ma’nolarini kitobxonga to‘g‘ri yetkazish uchun manbaning turli nusxa yoki nashrlarini taqqoslashi kerak. Faqat shu yo‘l bilan nashrlardagi mavjud notugalliklarni o‘nglash mumkin bo‘ladi.

Quyida yangi tarjimadan ayrim namunalar havola etilmoqda.

**DEBOCHA**

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Barcha olqish va maqtovlar borligi vojib bo‘lgan (vojib ul-vujud) buyuk Tangriga munosibdir. Fikru mulohazaning balandparvoz lochini Uning buyuklik fazosiga qadar yeta olmaydi va [hatto] insoniy tafakkur Qofining simurg‘i on hazratning izzatu ulug‘vorlik qoyalari uzra qanot qoqa olmaydi. Jalla sanouhu va azuma kibriyouhu (hamdi yuksak, ulug‘vorligi esa buyuk bo‘lgan Alloh) yuqori yetti ajdod xosiyati va past to‘rt ona asaridan uch farzandni vujud makonida mavjud qildi hamda koinot qismlarining har birini iste’dodu qobiliyatlariga ko‘ra munosib mavqe va martabalar bilan tartibladi.

She’r:

*Fafū kulli shay'in lahu oyatun,  
Tadullu 'alo annahu vohidun.*

Ma’nosi: Har yaratiqda Uning yakka-yu yagonaligini ko‘rsatuvchi bir alomat bordir.

Yaratilishning ibtidosidan inson zotini mijozning durustligi bilan barcha yaratilganlar va mavjudotning jinsidan sharafliyu mumtoz bo‘lishini buyurdi. “Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo‘ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O‘zimiz yaratgan ko‘p jonzotlardan afzal qilib qo‘ydik” [12. Al-Isro surasi, 17:70] oyatining sharif va karomat tojini ularning muborak boshi va qutlug‘ farqiga qo‘ydi, zaminu zamon, nabotu hayvon bo‘ynini bu xatarli jins izmidagi sirtmoqqa bog‘ladi. Haqiqatlar xazinasi hamda nozik ramzlar dafinasining kaliti bo‘lgan nutq quvvatini u jamoatning shikasta ko‘nglida omonat qo‘ydi. She’r:

*Qudrati Ÿst, ki parvarda ba shirinkoru,  
To ‘tii notiqaro dar shakkaristonni maqol.  
Hikmati Ÿst, ki parvonai din dod ba aql,  
To nihad sham ‘i hidoyat ba shabistoni zalol.*

Ma’nosi: Uning qudrati – so‘z shakkaristonida gapiruvchi to‘tini xushmuomalalik bilan tarbiyalash bo‘lsa, hikmati – zalolat shabistonida hidoyat shami yonsin deb aql uchun din parvonasini bergenidir.

Shubhasiz, oliyqadr inson jamoasi bu hisobsiz ne’mat va go‘zal tuhfalar shukronasi uchun (Uning) ulug‘ligi haqiqatiga dalolat qiluvchi ma’nolar va bayonning shohko‘chasida qadam bosadilar hamda “Lo uhsiy sanaau ’alayka” (Men senga aytilishi lozim bo‘lgan maqtovlar hisobini bilmayman) kalomini aytish bilan bemisl zotining muborakligiyu poklovchi tafsirini zikr qiladilar, doim karamining mustahkam arqoni (Qur’on)ni mahkam tutishga intiladilar.

Bayt:

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”**

**mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

*Shukri kadom fazl ba qoy ovarad kase,  
Hayron bimond, har kū dar in iftikor kard.*

Ma’nosi: Kishi qaysi fazilat shukrini joyiga qo‘ya oladi?! Bu haqda mulohaza yuritgan har bir kishi hayron qoladi!

*Tub ’alayno fainnano basharun,  
Mo ’arafnoka haqqa ma ’rifatik.*

Ma’nosi: Tavbamizni qabul et, chunki insomiz, biz seni loyiq darajada bilmadik.

Iymon tufayli yuzi ravshan bo‘lganlarning dilu jonidan “mo avho” [13. Najm surasi, 53:10] sirining sohibi, “dano fatadallo”ning [Najm surasi, 53:8] masnadnishini, “Va mo yantiqu ’ani-l-havo”ning [3.18] shirinkalomi, “in huva illo vahyun yuho” [Najm surasi, 53:4] karomati yukini ko‘targan, saylangan mamlakatlar sarvarlarining tojidagi dur bo‘lgan Abulqosim Muhammad Mustafoning muattar oromgohiyu munavvar ravzasiga ko‘plab afvu olqish, mammuniyat salomlar bo‘lsin! Kamo qolallohu ta’olo: “Innaloha va maloikatahu yusalluna ’ala-n-nabiyyi yo ayyuha-l-lazina omanu sallu ’alayhi va sallimu tasliman”. (Alloh taolo buyuradi: “Albatta, Allah va Uning farishtalari Payg‘ambarga salavot ayturlar. Ey mo‘minlar, (sizlar ham) unga salavot va salom aytinqlar!”) [13. Ahzob surasi, 33:56]. U xushkalom, shirinso‘z bo‘lgani tufayli Masih ham izzat beshigidan dastlab uning hamdi bilan tilga kirdi va xushro‘yligi sabab Misr azizi (Yusuf) malohat bobida o‘zidan ustun bildi. Bayt:

*Yatime, ki nokarda Qur’on durust,  
Kutubxonai chand millat bishust. [4.18]*

Ma’nosi: Qur’oni to‘g‘ri o‘qiy olmagan bir yetim qancha-qancha millatlar kutubxonasini pokladi.

Fi manqabati xulafoi roshidin, rizvonullohi ’alayhim ajma’in  
(To‘rt xalifa, rizvonullohi ’alayhim ajma’in, madhida)

Kitobning muallifi:

*Asosi shar’ro gardida bonū,  
Ba chor arkoni iqlimi maonū.  
Naxust, on sodiqe, k-ŷ kard bunyod,  
Asosi shar’u din az sidqu irshod.  
Duvum, on odili me’mori dindor,  
Ki doim xisht mezad bahri in dor.  
Sevum, on sham’i ɻannat, zinati arsh,  
Ki afkanad az hayo in xonaro farsh.  
Chahorum, olime, k-az ilmi mahmud,  
Dari in xonaro bar xalq bikshud.*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALAR”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Maseho, k-ŷ ba taxi chorumin ast,*

*Bar eshon dar fazilat pançumin ast. [4.18]*

Sallalohu ’alayhi va ’alo olihi va as’hobihi va-tobi’ina lahum biihsonin ilo yavmuddin (Allohnning salotu salomi qiyomatga qadar payg‘ambarga, uning oilasiga, ashobiga va unga ergashganlarga bo‘lsin).

Ma’nosi:

Shariatning asosi ma’nolar iqlimining to‘rt ustuni bilan barpo bo‘ldi.

Dastlab, sodiq bir kishi bo‘lib, u dinu shariat asosini sidqu irshoddan barpo qildi.

Ikkinchisi dindorlikning odil me’mori bo‘lib, u doim bu uyning g‘ishtlarini terdi.

Uchinchisi jannat shami, arshning ziynati bo‘lib, hayosidan bu uyga gilam soldi.

To‘rtinchisi bir olim bo‘lib, u maqtalgan ilm bilan bu uy eshigini xalqqa ochdi.

Masih to‘rtinchi taxt (falak)da o‘tirsada, fazilat bobida bu to‘rtoviga nisbatan beshinchidir.

O‘zbek navoiyshunosligida jiddiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan qadimiy manbalarning salmog‘i ancha katta. Ularning bir qismi o‘zimizda turli yillarda o‘zek tilida chop etilgan bo‘lsa-da, ayrim manba va materiallar qisman nashr etilgan, xolos.

1. Davlatshoh Samarqandiying “Tazkirat ush-shuaro” asari ham shu siraga kiradi. U o‘zida juda boy fakt va materiallarga ega bo‘lgan nodir manbadir. Zero, unda tyemuriylar davrining davlatchilik tarixi, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-adabiy hayot haqida boshqa manbalarda deyarli uchramaydigan ma’lumotlarning salmog‘i ancha katta.
2. Muhimi, u o‘sha davr madaniy hayoti, xususan, adabiyot tarixi va adabiy jarayon haqida ham katta hajmdagi ma’lumotlarni jamlagan. Ushbu ma’lumotlar orasida buyuk mutafakkirlarning shaxsiy hayotlari, qoldirgan merosi, xususan, xamsachilik an’analari, bunda Nizomiy Ganjaviy boshlab bergen xamsachilik hodisasining yangi tarixiy sharoitda Amir Xussrov Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan davom ettirilishidagi o‘ziga xosliklarning mohiyati yaxshi ochib byerilgan.
3. Manbada o‘sha davr adabiy janrlar tizimi, bunda alohida ijodkorlarning o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. O‘z davrining eng muhim adabiy voqealari sharhlab berilgan.
4. Shunga qaramasdan mazkur asar o‘zbek tiliga to‘laligicha o‘girilgan emas. Endilikda mana shunday savobli va zaruriy ish amalga oshirilmoqda.

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonda Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Xalq so‘zi, 2017 yil 24 iyun.
2. Alisher Navoiy. MAT, Yigirma tomlik, 13-tom. Majolis un-nafois. Matnni izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G‘aniyeva. – Toshkent, Fan, 1997. – B. 284.
3. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuar. Tahiysi Muxlisa Nurulloyeva. – Xujand, “Noshir”, 2015. – S. 544.
4. دولتشاه سمرقندی. تذکرہ الشعرا. به سعی و اهتمام و تصحیح ادوارد براون. تهران: اساطیر، ۱۳۸۲. – ۶۳۱ ص.
5. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuar”dan). Fors-tojik tilidan Bo‘riboy Ahmedov tarjimasi. She’rlarni Sulaymon Rahmon tarjima qilgan. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. 224 bet.
6. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkiranatu-sh-shuar. Nashrga tayyorlovchi Edvord Braun – Tehron: Asotir, 1924. – S. 353.
7. Mirzozoda, X. **Davlatshohi Samarqandī va “Tazkirot-ush-shuar”-i o‘** // Ta’rxi adabiyoti toçik. kitobi 2. – Dushanbe, 1977. – S. 321-325.
8. Sattorov, A. *Aqidahoi adabū va badeii Davlatshohi Samarqandū* // Obraz va mahorati badeй. – Dushanbe, 1980. – S. 49-61.
9. Sirojiddinov. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent, “Akademnashr”, 2011. – B.326.
10. Sh.Sattorov, A. *Davlatshohi Samarqandū: Tazkiranavisi fors-toçik* // Ensiklopediyai sovetii toçik. – 1980. – Ч.2. – 211 s.
11. Afsahzod, A. **Davlatshohi Samarqandī va tazkirai o‘** // Maktabi sovetī. – 1974. – №12. – S. 32-36.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonda Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Xalq so‘zi, 2017 yil 24 iyun.